



ISSN: 3060-4613



13.00.00
13.00.01
13.00.02
13.00.03
13.00.04
13.00.05

13.00.06
13.00.07
13.00.08
13.00.09
07.00.00
19.00.00

01.00.00
02.00.00
03.00.00
09.00.00
10.00.00
11.00.00

№6/2025

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 160 sahifa,
5-iyun, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)
Panjijev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Iqim o'zgarishi muammolari va "yashil ko'nikmalar"ning rivojlanishi.....	14
<i>Abdurashit Karimovich Avliyaqulov</i>	
TTJlardagi qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish.....	18
<i>Xasanboy U. Abdusamatov</i>	
Integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili	26
<i>Jalilov Nodirjon Azamatovich</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi.....	30
<i>G'ayibova Nargiza Anorbayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari	33
<i>Hakimova Gulmira To'xtatosheva</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini	37
<i>Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi</i>	
Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining ta'siri	41
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodova</i>	
Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников	44
<i>Умрихина Виктория Игоревна</i>	
Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода	52
<i>Ахунова Умида Ойбековна</i>	
Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: o'qitish va boshqaruvdagi o'rni	55
<i>Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi</i>	
Buxorodagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi.....	60
<i>Axrorov Ixtiyor Doniyorovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va maktabning roli	63
<i>Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li</i>	
Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход	67
<i>Сайфутдинова Насиба Нурматовна</i>	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.....	75
<i>Otasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari	78
<i>Xodjimatoeva Nazira Toshmatovna, Mallayeva Gulshoda Maxmudjonovna</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'limning o'rni	81
<i>B. Xusniddinova</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish	85
<i>Zulaykho Samatovna Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi	89
<i>Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi</i>	
Sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	92
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna</i>	
Methodology of Teaching English to Preschool Children	96
<i>Khurshida Tojimurodova</i>	
Malaka oshirish jarayonida yo'riqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati..	100
<i>Ch. B. Nalibayeva</i>	
O'qituvchilarning o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlari	103
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning o'rni.....	106
<i>Boymirzayeva Xurshida Sobirovna</i>	



Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari	110
Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li	
An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development..	113
Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna	
O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	118
Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi	
Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari	123
Jo'rayev Ilhom Isxoqovich	
Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish	126
Muxlisa Satriddinova Muhitdinova	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi	132
Nuriddinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	136
Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi	
Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlarini	139
Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi	
Nutqiy kamchiliklarni kamaytirishda o'yinlarning o'rni	143
Jabborova Oltinoy	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	146
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Ta'lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruvining qiyosiy tahlillari	150
Uzaqov Nomozi Hamdamovich	
Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari	153
Z. M. Zarifova	

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI UCHUN AXBOROT BILAN ISHLASHNI O'RGATISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li

Turan International University
IC&DT departamenti direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilingan, mavjud muammolar aniqlangan va didaktik yondashuvlar asosida samarali metodlar taklif etilgan. Shuningdek, axborot izlash, saralash, tahlil qilish va taqdim etishga oid ko'nikmalar bosqichma-bosqich shakllanishi tavsiya etilgan. Maqolada grafik materiallar, jadvallar va diagrammalar asosida real tajriba natijalari keltirilib, xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlil amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, raqamli muhit, axborot bilan ishlash, media savodxonlik, didaktik yondashuv, ko'nikma, ta'lim texnologiyalari.

Abstract: This article explores the formation of information literacy skills among primary school students within a digital learning environment. The study analyzes both foreign and local scientific sources, identifies existing challenges, and suggests effective didactic approaches and teaching methods. The research emphasizes a step-by-step development of competencies such as information search, filtering, analysis, and presentation. Practical results are presented through tables and diagrams, along with a comparative analysis of international educational practices.

Key words: primary education, digital environment, information literacy, media literacy, didactics, educational technologies, skills.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования у младших школьников навыков работы с информацией в условиях цифровой образовательной среды. Проведен анализ зарубежных и отечественных источников, выявлены ключевые проблемы и предложены эффективные дидактические методы обучения. Акцент сделан на поэтапное формирование умений поиска, отбора, анализа и представления информации. Представлены результаты практического эксперимента с использованием таблиц и диаграмм, а также проведен сравнительный анализ с международным опытом.

Ключевые слова: начальное образование, цифровая среда, работа с информацией, медиаграмотность, дидактика, образовательные технологии, навыки.

KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi natijasida o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinfdagi o'qiyotgan o'quvchilarga axborotni to'plash, tahlil qilish, saralash, qayta ishlash va taqdim etish kabi ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'rgatish ta'lim samaradorligini oshiradi ^[1]. Raqamli ta'lim muhiti – bu texnologik resurslar (planshet, kompyuter, mobil ilovalar, internet va boshqalar) orqali o'qitish va o'rganish jarayonini tashkil qilishga imkon beruvchi tizimdir. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot bilan ishlashga oid didaktik yondashuvlar zamonaviy ta'limda dolzarb muammo sanaladi ^[2]. Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarda ko'plab fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Jahon miqyosida axborot savodxonligi va media ta'limi bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar (UNESCO, OECD, EUN Schoolnet kabi tashkilotlar tomonidan) ushbu ko'nikmalarning erta yoshdan boshlab rivojlantirilishini zarur deb hisoblaydi ^[3].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Vygotsky o'zining sotsial-psixologik nazariyasida ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyatiga diqqatni qaratgan. Uning ta'kidlashicha, o'quvchilarning bilim olish jarayoni ijtimoiy interaktivlik bilan bog'liqdir. AKT vositalari o'quvchilarga bir-biri bilan muhokama qilish, bilimlarini baham ko'rish va o'z fikrlarini ifodalash imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi ^[4].

Media va axborot savodxonligi bo'yicha yetakchi mutaxassis AQSHlik Renee Hobbs 3-sinflar o'quvchilarida 8 haftalik sinovdan so'ng ularning fakt va fikrni ajrata olish ko'nikmasi 60% dan 87% ga ko'tarilganini kuzatadi. Ushbu davrda o'quvchilarning so'z boyligi va mustaqil yozma nutqi sezilarli darajada rivojlanganini aytadi. Uning fikricha, boshlang'ich sinf o'quvchilarini axborotni tanqidiy baholashga, vizual axborotni tahlil qilishga o'rgatish zarur deb hisoblaydi ^[5]. Yana bir AQSHlik tadqiqotchi Dr. Elisabeth Gee o'zining "Raqamli o'yinlar orqali o'rganish" nomli ishida "Raqamli o'yinlar – bu axborotni izlash va tuzish bo'yicha eng kuchli vositalardan biri" degan g'oyani ilgari suradi. Minecraft va Scratch asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan loyihaviy ishlar tashkil qiladi. Bunda bolalar axborotni to'playdi, tahlil qiladi va virtual loyiha quradi. Natijada loyiha ishtirokchilari savollarga chuqurroq javob bera boshlagan, ishtirokchilarning 73% axborotni o'z so'zlari bilan qayta ifodalashni o'rgangan ^[6].

Raqamli ta'limni tanqidiy tahlil qilish bilan shug'ullangan avstraliyalik Neil Selwyn 10 dan ortiq boshlang'ich maktablarda raqamli vositalar bilan ishlash jarayonini kuzatib, o'quvchilar faqat texnologiyadan emas, balki an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirilgan raqamli darslar orqali samarali o'rganishini aniqlagan. "Texnologiyalar har doim ijobiy emas – u sifatli pedagogik yondashuv bilan uyg'unlashtirilgandagina natija beradi" degan g'oyani ilgari suradi ^[7].

Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslarini ilmiy-metodik jihatdan yoritish, mavjud muammolarni tahlil qilish va taklif etilayotgan yechimlarni asoslab berish maqsad qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni zamonaviy raqamli muhit talablariga mos ravishda yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Ushbu tadqiqotda o'quvchilarning axborot bilan bog'liq faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik asoslarni aniqlash, ularni tizimlashtirish va amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan metodik modelni ishlab chiqish asosiy vazifa qilib belgilandi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida metodologik asos sifatida quyidagi asosiy tamoyillarga tayanildi:

1. Pedagogik nazariy asoslar – zamonaviy ta'lim konsepsiyalari, Vygotskiy, N. Selwyn, Dr. Elisabeth, R. Hobbs kabi olimlarning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga oid g'oyalari;
2. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ta'limdagi o'rni – raqamli vositalar orqali mustaqil izlanish, kontent tahlili, axborotni qayta ishlash va taqdim etish;
3. Raqamli savodxonlik va media madaniyat – xorijiy va mahalliy standartlarga muvofiq axborot bilan ishlashni boshlang'ich bosqichdan boshlab shakllantirish zaruriyati.

Tadqiqot doirasida mahalliy maktablar sharoitida o'quvchilarning raqamli axborot bilan ishlashdagi amaliy tajribasi tahlil qilindi. Bu jarayonda bir necha uslubiy vositalar qo'llanildi. So'rovnomalar va diagnostik savolnomalar orqali o'quvchilarning dastlabki bilim va ko'nikmalari aniqlandi. O'qituvchilar bilan yarimstrukturaviy suhbatlar o'tkazilib, mavjud muammolar, ehtiyojlar va imkoniyatlar haqida ma'lumotlar yig'ildi. Kuzatuv protokollari orqali dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki, texnologiyalardan foydalanish darajasi, mustaqil fikrlash holatlari qayd etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar axborotning ishonchlilik darajasini aniqlashda qiynaladilar. Axborotni qayta ishlash, ya'ni saralash va tahlil qilish bosqichlari sezilarli darajada past darajada ekanligi, shuningdek axborotni uzatish hamda taqdim etishda vizual yoki grafik yondashuvlardan foydalanish holatlari kamligi aniqlandi. Tahlil natijalariga ko'ra aniqlangan holatlar asosida axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan didaktik model ishlab chiqildi. Model quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- Axborotni topish (raqamli qidiruv vositalaridan foydalanish);
- Saralash (kerakli va keraksiz axborotni farqlash);
- Tahlil qilish (mazmuniy jihatdan muhim elementlarni ajratish);
- Qayta ishlash (axborotni qayta izohlash, shaxsiy fikr bildirish);
- Taqdim etish (vizual taqdimotlar, diagrammalar, jadvallar, og'zaki nutq).



Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari raqamli vositalar orqali axborot bilan ishlashga tayyor, biroq bu jarayonni maqsadli, bosqichli va pedagogik jihatdan asoslangan tarzda tashkil etish zarur. Bu esa o'z navbatida, boshlang'ich ta'lim dasturlarida axborot savodxonligiga oid maxsus modul yoki fanlararo integratsiyalashgan yondashuvni joriy qilishni taqozo etadi.

Raqamli ta'limdan boshlang'ich sinflar dars jarayonida foydalanish xorijiy davlatlarda ancha ilgari boshlangan. Finlandiyada raqamli o'quv rejalar asosida o'quvchilar axborotni tahlil qilish, manbalarni baholash va vizual tarzda taqdim etishni o'rganadi. Har bir o'quvchiga planshet taqdim etiladi, har hafta bir "Axborot loyihasi" amalga oshiriladi ^[8]. Estoniya tajribasida esa dasturlash va axborot bilan ishlash darslari 1-sinf dan boshlab joriy etilgan. Raqamli dasturlar orqali o'quvchilar o'z mustaqil izlanishlarini elektron platformalarda olib boradilar ^[9]. Janubiy Koreyada esa media-savodxonlik erta yoshdan shakllantiriladi. Har bir maktabda "Digital Literacy Center" mavjud bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari interaktiv o'yinlar orqali ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatiladi ^[10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli muhitda axborot bilan ishlashga o'rgatish – bu zamonaviy ta'limning strategik zaruriyatlaridan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanganki, o'quvchilar raqamli axborot oqimi ichida adashmasligi uchun axborot izlash, tahlil qilish va taqdim etish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur. Didaktik yondashuvlar (vizual, gamifikatsiya, kooperativ o'qitish, refleksiya) o'quv jarayonini interaktiv va samarali qiladi. Xorijiy ta'lim tizimlari bu yo'nalishda ancha oldinda bo'lib, ularning tajribasi O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi mumkin.

Mahalliy sharoitda raqamli pedagogik vositalar, o'quv dasturlari va o'qituvchi tayyorgarligi masalalarida tizimli ishlar olib borilishi kerak. Shu asosda, raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarini axborot bilan ishlashga o'rgatishda quyidagi amaliy tavsiyalar foydali bo'lishi mumkin:

- o'quv dasturlariga axborot savodxonligi bo'yicha alohida modul kiritish;
- o'qituvchilar uchun raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- raqamli dars platformalarida maxsus interaktiv resurslar ishlab chiqish;
- baholash mezonlarini yangilab, portfolioga asoslangan baholash tizimini joriy etish;
- ota-onalar bilan hamkorlik orqali o'quvchining raqamli axborot muhitidagi xatti-harakatini kuzatib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gee, J. P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Macmillan, 2007.
2. EUN Schoolnet. Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu), 2020.
3. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers, 2011.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes, 1978.
5. Hobbs, R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Corwin Press, 2011.
6. Gee, E. Learning Through Digital Play. Journal of Educational Multimedia and Hypermedia, 2014.
7. Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. Bloomsbury Publishing, 2017.
8. Finnish National Agency for Education. New National Core Curriculum for Basic Education, 2016.
9. Estonian Ministry of Education and Research. ProgeTiiger Program, 2020.
10. Korea Education and Research Information Service (KERIS). Digital Literacy Policy in Primary Education, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.